

O'ZBEK MILLIY MENTALITETIDA NON KONSEPTINING O'RNI: KOGNITIV-AKSIOLOGIK TAHLIL

Niyozova Mehribonu Furqat qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek milliy mentalitetida "non" konseptining o'rni kognitiv lingvistika, madaniy antropologiya va aksiologiya doirasida tahlil qilinadi. Non konseptining semantik, ramziy, ma'naviy, metaforik va ijtimoiy qatlamlari ilmiy adabiyotlar va folklor manbalari asosida yoritiladi. Tadqiqot doirasida non konsepti milliy ongning barqaror kultural arxetipi, ijtimoiy tartibni shakllantiruvchi qadriyat kodi, kollektiv xotira elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy urbanizatsiya, migratsiya va globallashuv jarayonlarining non konseptiga ta'siri yangi ilmiy mulohazalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *milliy mentalitet, non konsepti, kognitiv lingvistika, madaniy kod, arxetip, aksiologiya, folklor, o'zbek qadriyatlari.*

Abstract: *This article analyzes the role of the concept of bread in the Uzbek national mentality from a cognitive-axiological perspective. The study is conducted within the frameworks of cognitive linguistics, cultural anthropology, and axiology. The semantic, symbolic, spiritual, metaphorical, and social layers of the bread concept are examined based on scientific literature and folklore sources. The research reveals that the concept of bread functions as a stable cultural archetype, a value code shaping social order, and an element of collective memory within the national worldview. In addition, the influence of modern processes such as urbanization, migration, and globalization on the transformation of the bread concept is analyzed. Despite certain semantic shifts in contemporary society, the concept of bread maintains its status as one of the most enduring and fundamental archetypes of the Uzbek national mentality, embodying values such as prosperity, purity, livelihood, respect, loyalty, and social harmony.*

Keywords: *national mentality, concept of bread, cognitive linguistics, cultural code, archetype, axiology, folklore, Uzbek values.*

Milliy mentalitet xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari, muloqot normalari, ma'naviy qarashlari va kundalik odatlarida mujassam topgan murakkab ijtimoiy-kognitiv tizimdir. Mentalitet komponentlari orasida kultural konseptlar alohida o'rin tutadi, chunki ular kollektiv ongda mustahkamlangan ma'no va qadriyatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Shunday konseptlardan biri — "non". O'zbek xalqining mental-madaniy tarkibida non baraka, halollik, rizq, sadoqat, insoniylik, ehtirom va poklikning timsoli sifatida qayd etilgan eng kuchli kultural kodlardan biridir. Nonning qadrlanishi nafaqat maishiy ehtiyoj bilan bog'liq, balki



tarixiy xotira, diniy e'tiqod, mehnat madaniyati va ijtimoiy munosabatlar bilan ham o'zaro uzviy bog'langan.

Milliy mentalitetga turli yo'nalishlarning munosabati farqlanadi. Falsafiy jihatdan mentalitetga — xalq ongining “chuqur qatlamlari”, tarixiy tajribada shakllangan ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimidir deb tarif berishsa, psixologlar mentalitetni “kollektiv xulq kodlari”, avloddan avlodga o'tadigan psixik andozalar sifatida izohlaydi. Kognitiv lingvistika yondashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan mentalitetni tilshunoslar xalq tilida yashirin konseptlar orqali o'rganadi. Konseptlar ongdagi kultural kodlarni ifodalaydi. Sotsiologlar mentalitetni urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va kundalik hayot shakllarining uyg'un tizimi sifatida talqin etadi. Ushbu nazariy doiralarning barchasi non konseptining milliy ongdagi o'rnini tahlil qilishga asos bo'la oladi.

Non konseptining mazmuni ko'p qatlamli bo'lib, uning kognitiv-semantik tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat.

Denotativ (asosiy) qatlam: Non — oziq-ovqat turi, hayotiy zarurat. Ammo milliy ongda bu ma'no eng sodda va sirtqi qatlam hisoblanadi.

Ramziy-semantik qatlam: o'zbek xalq madaniyatida non baraka, halollik, yashash va rizq manbai, mehr va do'stlikning ramzi bo'lib kela oladi. Rasulovning ta'kidlashicha, non konsepti o'zbek xalqida “hayot va rizqning asosiy metaforasi”dir.

Aksiologik qatlam (qadriyatlar tizimi): O'zbek xalqida non muqaddas qadriyat maqomiga ega. Nonni yerga tashlash gunoh hisoblanishi, non ustiga oyoq qo'yish qat'iy man etilishi, non maydalanib ketgan bo'lsa, yig'ib qo'yish odati buning dalilidir. Bu qadriyatlarning shakllanishi xalqning ijtimoiy xotirasi va mehnat madaniyati bilan bog'liq.

Metaforik qatlam: Non konsepti ko'plab metaforalarda ishlatiladi: “non topish” — mehnat qilish va shu mehnat evaziga ma'lum miqdorda daromad topish; “noningni berib qo'yma” — o'zingga tegishli narsani berma; “non oshi” — do'stlik va yaqinlik ramzi; “non sindirish” — kelishuv, yarash, sadoqat timsoli. Lakoff ta'biri bilan aytganda, bu metaforalar konseptual tizimning asosiy qismini tashkil etadi.

Non konsepti madaniy arxetip sifatida ham namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyoda dehqonchilik madaniyati qadimdan shakllangani tufayli non qadri tarixiy xotirada chuqur ildiz otgan. Non qadri sharq xalqlarining eng qadimiy ruhiy qatlamlariga singib ketgan kultural belgi sifatida namoyon bo'ladi.”

Diniy-falsafiy asoslarda Islomda rizq alloh tomonidan beriladi, non esa rizqning ko'rinishi sifatida hurmat qilinadi. Shu bois nonni hurmat qilish diniy-aksiologik ildizlarga ega (ibn abu shayba, 9-asr).

Asrlar osha davom etib kelayotgan marosimlar va rasm-rusumlarda non bilan bog'liq qadriyatlar talaygina. Baraka tilash maqsadida to'yda kelinning boshiga non qo'yish; yo'li ochiq bo'lishi uchun safarga chiqqan odamga non berish; sadoqat ramzi



sifatida qasam ichishda non ishlatilishi non konseptining ritual funksiyasini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda non konseptida bir qator transformatsiyalar kuzatilmoqda. Bulardan biri urbanizatsiya ta'siri. Shahar aholisi orasida nonning muqaddas qadriyat sifatidagi tafakkuri qisman susayib, uning iste'mol mahsuloti sifatidagi ma'nosi kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida tez tayyor boluvchi oziq-ovqatlarning o'zbek oshxonasiga kirib kelishi, xorijiy non turlari (baget, pitsalar) kengayishi natijasida nonning shakli va iste'mol madaniyati o'zgarayotgan bo'lsa-da, mental qadriyat saqlanib qolmoqda. Buning natijasida esa yoshlar ongida "non" konsepti transformatsiyaga uchramoqda. Yoshlar orasida nonni muqaddas qadriyat sifatida qabul qilish darajasi ajdodlarimizga qaraganda nisbatan farqlanadi. Lekin aksariyat hollarda bu qadriyatlar oilaviy tarbiya orqali yetkazilmoqda.

O'zbek milliy mentaliteti tarixiy xotira, diniy e'tiqod, mehnat madaniyati, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida shakllangan murakkab tizimdir. Ushbu tizimda non konsepti markaziy — "yadro" konseptlardan biri bo'lib, xalq ongida baraka, halollik, poklik, rizq, sadoqat va do'stlik kabi qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Non konsepti nafaqat ma'naviy ramz, balki mental kod, madaniy identitet va ijtimoiy tartibni saqlovchi mexanizm sifatida ham muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda ba'zi semantik o'zgarishlar kuzatilayotganiga qaramay, non konsepti o'zbek milliy mentalitetining eng barqaror va eng qadimiy arxetiplaridan biri sifatida o'z mavqeini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, a. 2017. Milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar. Toshkent: fan.
2. Rasulov, b. 2020. O'zbek xalq tafakkurida konseptlarning o'rni. Samarqand: zarafshon.
3. Saidov, m. 2021. "o'zbek madaniyatida qadriyatlar dinamikasi". Ma'naviyat va jamiyat, 4(2), 33–41.
4. Lakoff, g., & johnson, m. 1980. Metaphors we live by. Chicago: university of chicago press.
5. To'raqulov, r. 2018. Mentalitet va ma'naviy meros. Toshkent: yangi asr avlodi.
6. Mahmudov, d. 2022. "urbanizatsiya va madaniy transformatsiya jarayonlari". Ijtimoiy fikr, 3(1), 51–62.
7. Oltinsoy, s. 1997. Sharq xalqlari ramzlar tizimi. Buxoro: talqin.
8. Ibn abu shayba. (9-asr). Musannaf. Qohira nashri.